

Ko'chib yuruvchi qushlar

Ko'chib yuruvchi qushlar — yilning ma'lum fasllarida bir hududdan boshqa hududga uchib o'tadigan qushlardir. Ular asosan ob-havo sharoiti, oziqa tanqisligi va ko'payish uchun qulay joy topish sababli migratsiya qiladi. Ko'pchilik qushlar kuz faslida sovuq hududlardan iliq o'lkalarga uchib ketadi, bahorda esa yana o'z yashash joyiga qaytadi. Ko'chish jarayoni juda uzoq masofalarni qamrab olishi mumkin. Ayrim qushlar minglab kilometr masofani bosib o'tadi. Masalan, laylak, qaldirg'och, turna, oqqush, g'oz va o'rdak kabi qushlar ko'chib yuruvchi qushlar hisoblanadi. Ular ko'chish vaqtida osmon yo'llaridan, quyosh va yulduzlardan yo'nalishni aniqlashda foydalanadi.



Ko'chib yuruvchi qushlar tabiat muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular zararli hasharotlarni yo'q qiladi, urug'larni tarqatadi va ekotizimning sog'lom bo'lishiga hissa qo'shadi. Shu sababli ko'chib yuruvchi qushlarni asrash va ularning yashash muhitini himoya qilish juda muhimdir.



Pat — qush tanasini qoplaydigan yengil tuzilma. Pat qushni sovuqdan saqlaydi, uchishga yordam beradi va tanani himoya qiladi. Rangli patlar yashirinish va juft topishda ham muhim.

Qaldirg'och — ko'chib yuruvchi, kichik va chaqqon qush bo'lib, asosan hasharotlar bilan oziqlanadi. U bahorda iliq o'lkalardan uchib kelib, odamlar yashaydigan joylarga uya quradi. Qaldirg'och tez uchishi va havoda hasharot tutishi bilan ajralib turadi. Kuz faslida esa issiq mamlakatlarga qaytib ketadi.



Qanot — uchish uchun moslashgan oldingi oyoqlar. Qanotlar yordamida qush havoga ko‘tariladi va uzoq masofaga ucha oladi.



Laylak — ko‘chmanchi qush. U suv bo‘ylarida yashaydi va mayda jonivorlar bilan oziqlanadi. Laylakning qanotlari juda katta va keng bo‘lib, uzoq masofalarga charchamasdan uchishiga yordam beradi. Bahorda uya quradi, jufti bilan yashaydi va tabiat uchun foydali qush hisoblanadi.



Dum — uchish paytida muvozanatni saqlaydi va yo‘nalishni o‘zgartirishga yordam beradi.

Turna — yirik, ko‘chib yuruvchi qush bo‘lib, ochiq tekisliklar, botqoqliklar va suv bo‘ylarida yashaydi. U o‘simlik urug‘lari, hasharotlar va mayda jonivorlar bilan oziqlanadi. Turnalar to‘da bo‘lib uchadi va uzoq masofalarga ko‘chadi.



Dumi nisbatan qisqa bo‘lib, uchish vaqtida muvozanatni saqlashga yordam beradi hamda tananing barqaror harakatini ta’minlaydi.



Oyoq va panjalar — yurish, sakrash, shoxga qo‘nish va o‘ljani ushlash uchun xizmat qiladi.

